

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310

**UO'K: 8.82'282.82(091)****NUH ALAYHISALOM OBRAZINING TARIXIY ASOSLARI****ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗА НУХА АЛЕЙХИССАЛАМА****HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE IMAGE OF NUH ALAYHISALAM**

Mamatova Sadbara Qo'Idoshevna 
Renessans ta'lif universiteti o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada Nuh va to'fon voqealarini yoritish va unda inson yaratilishiga to'fon afsonasining tarixiy asoslari va ulardag'i manbalar inson yaralishi Nuh allayhissalom yashagan davrga borib taqalganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek olimlarimizning suv toshqiniga oid voqealar turli zamон va vaqtarda arxeologik qazishmalarni o'rGANILGAN ma'lumotlar tahlil qilingan bo'lib bunda olimlarimizning tadqiqot ishlari qiziqarli va e'tibor qaratadigan jihatlari ko'zga tashlanadi.

Аннотация

В статье мы рассмотрим события Ноя и потопа, а также историческую основу легенды о потопе до сотворения человека, и станем свидетелями того, что сотворение человека восходит ко времени, когда Ной, да благословит Бог он, жил. Также проанализированы события наводнений наших ученых и проанализированы данные археологических раскопок в разное время и времена, выделены интересные и привлекающие внимание аспекты исследовательской работы наших ученых.

Abstract

In the article, we will cover the events of Noah and the flood and the historical basis of the legend of the flood to the creation of man, and we will witness that the creation of man goes back to the time when Noah, may God bless him, lived. Also, the flood events of our scientists have been analyzed and the data of archeological excavations at different times and times have been analyzed, and the interesting and attention-grabbing aspects of the research work of our scientists are highlighted.

Kalit so'zlar: to'fon, Mahmud Qoshg'ariy, Xudo, shamol, kema, payg'ambar, tarix, Nuh, Afrosiyob.

Ключевые слова: потоп, Махмуд Кашигари, Бог, ветер, корабль, пророк, история, Ноев, Афросиаб.

Key words: flood, Mahmoud Kashgari, God, wind, ship, prophet, history, Noah, Afrosiyab.

KIRISH

Shomonlik turkiy qavmlar (o'rtaida) qom deb yuritilgan. Qomlar bola dunyoga kelishi bilan uning qismatidagi voqealardan xabar bergan. Qo'rquq ota o'z qavmida tug'ilgan bolaga "ismini men berdim, umrini Tangri bersin" deb, duo qilishi shomonlik vazifasini o'tashidir. Eron tarixchisi Juvayniy keltirishicha, qom ilmidan xabardor uyg'urlar shaytonlarga ham hukmini o'tkazishga harakat qilganlar. Qomlar qor va yomg'ir yog'dirish sehrini ham egallashgan. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" [1-3] kitobida bu voqeaga shohid bo'lganligini eslaydi: "Bir tosh (yat-yada) bilan kohinlik qilinadi, shamol va yomg'ir chaqiriladi. Bu hol turklarda juda keng tarqalgan bo'lib, men ham uning shohidi bo'ldim. Yozda katta bir yong'in chiqqan edi. Uni o'chirish maqsadida Ollohnning izni bilan qor chaqirildi va u yog'ib, yomg'in so'ndi" [1]. Qomlar yada toshlari sehri bilan yomg'ir yoki qor yog'dirishi to'g'risida ko'plab rivoyat, afsona, tarixchi olimlarning esa hayotiy kuzatishlari bitilgan xotiralar yetib kelgan. Yada toshlarining paydo bo'lishi Nuh payg'ambar bog'lanar ekan. Turk olimi Usmon Turon shunday rivoyatni keltiradi: Nuh payg'ambar Turkistonni o'g'li Yofasga bergenida, u bu suvsiz o'lkada nima qilishini so'raydi. Ota unga yomg'ir yog'dirish qudratini baxsh etib, ustiga duo (ismi a'zam) yozilgan bir tosh (tilsim) beradi [1], ya'ni ehtiyoj bo'lganda, shu tosh bilan Olloha duo etib, yomg'ir yog'dirilar edi. Toshni "yada, toshi" (yada – jada, jodugarlik demakdir – A.A.) deyishardi. Rivoyatlarga ko'ra, tosh o'g'uzlar qo'liga o'tgani uchun unga ega bo'lish maqsadida qorluq, hazar va boshqa turklar o'rtaida urushlar bo'lgan [2]. Turklarning ajdodiga Olloham yomg'ir yog'dirish qobiliyatini bergani haqidagi rivoyatlar Xitoy, islom va nasroniy manbalarda ham ko'p marta zikr etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLLILI

Qadimgi adabiy manbalarni o'rganishda olimlarimiz tomonidan ko'pgina izlanishlar olib borilgan jumladan, Nuh alayhissalom oid manbalarni o'rganib kelayotgan tadqiqodchi olimlarimiz P.M.Melioranskiy, S.Ye.Malov, V.L.Kotvich, A.N.Kononov [4] izlanishlari katta ahamiyatga ega. Xususan o'zbek olomlari o'tasida ham To'fon voqeasini o'rganishda keng qamrovli ishlar olib borilagan bo'lib, E.Fozilov, H.Dadaboyev, A.Yunusov, N.Asilova, N.Mallayev, I.Ostonaqulov, B.B.Abdushukurov, A.Abdurahmonov, Z.Y.Shukurova, M.Qurban niyozov [5] va boshqalar o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan.

NATIJA VA MIHOKAMA

Gerodot "Tarix" asarida skiflar qavmi o'tasida sehrgarlik bilan shug'ullanuvchilar ko'p bo'lganligini ta'kidlaydi [1,6]. Ayrim manbalarda, masalan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida Turon mamlakati hukmdori Afrosiyobga ta'rif berilar ekan, "u jodugar Nuh podshoning bolalaridan" deb ko'rsatiladi. Sehrgarlik Nuhga va Afrosiyobga bog'lanishi turkiy qavlarning bosh bo'g'iniga mansub hukmdorlar ham sehr-jodu ishlarini bilishiga ishoradir. Tabariyning "Tarixiy Tabariy" asarida esa Afrosiyobning o'g'li Shad sehrgar bo'lgani va Eron lashkarlariga xavf tug'dirganligi keltirilgan. So'z sehri bilan yomon ruhlarga qarshi kurashish jarayonida yuzaga kelgan matnlar sekin-asta janr xususiyatini ola boshlagan. Turkiy xalqlar o'tasida islomdan so'ng ham so'z magiyasi rivojlangan, ular afsunlar (arabcha sehr-jodu) deb yuritilgan. Bu afsunlar hozir ham mavjud bo'lib, ular mullalar tomonidan o'qiladi. Afsunlarning matnlari, asosan, islom dini ta'llimotiga aloqadordir. Shu sababli ular turkiy adabiyotning namunasi hisoblanmaydi.

Xudovand Nuhga: "Sen butun xonadoning bilan kemaga kiringlar. Chunki bu nasl orasidan, Mening nazarimda, solih bo'lgan yolg'iz seni topdim, - dedi. Halol bo'lgan har bir chorva tuyog'ining erkak va urg'ochi jinsidan yettitadan, harom bo'lgan chorvaning erkak va urg'ochi jinsidan esa ikitidan olib, o'zing bilan kemaga kirgizgin. Osmondag'i parrandalarning ham erkak va urg'ochi jinsidan yettitadan olib kirgizgin, toki butun yer yuzida yashovchi har xil jonivorlardan tirik qolganlar bo'lsin. Chunki yetti kundan keyin Men yerga qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadigan yomg'ir yog'diraman. O'zim bunyod etgan barcha mavjudodni yer yuzidan qirib tashlayman" [1,7]. Nuh esa Xudovand keltirgan hamma narsani bajo keltirdi. Nuh umrining olti yuzinchili yili, ikkinchi oyining naq o'n yettinchi kunida ulkan tubsizlik buloqlari bari qaynay boshlab, osmon qopqalari ochilib ketdi. Ketidan yer yuziga qirq kecha-yu qirq kunduz yomg'ir yog'di. Ana shu kunning o'zida Nuh va uning o'g'illari Som, Xom va Yofit (Yofas), Nuhning xotini bilan uchta kelini hammasi birga kemaga kirdilar. Ular bilan birga barcha yovvoyi hayvon, chorva va yerda qimirlovchi mayda jonivorlar turlari, shuningdek, barcha parranda turlaridan xilma-xil patli qushlar kemaga kirdilar. Hayot ruhiga ega bo'lgan har bir maxluqdan juft-juft bo'lib, Nuhning oldiga, kemaga kirdilar [2,4]. Xudo Nuhga buyurganidek, kemaga kirgan har bir maxluqning erkak va urg'ochi jinsidan bor edi. Oxirida Xudovand Nuhning ketidan eshikni yopib qo'ydi. Qirq kun davomida yer yuzini to'fon bosib, suvlar toshib, kemani yerdan yuqoriga ko'tardi. Yer yuzini bosayotgan suv toshqini tobora kuchayib borar ekan, kema suv yuzida suzib yurar edi. Yer yuzidagi suv toshqini behad kuchayib, osmon-u falak ostidagi baland tog'larning hammasini qoplab oldi. Suv toshqini tog'u tepalikdan o'n besh gaz yuqoriroq ko'tarilib, hamma yoqni ko'mib tashladi. Yer yuzida harakat qiluvchi har bir maxluq – parranda ham, chorva ham, yovvoyi hayvonlar ham, yerda qimirlovchi mayda jonivorlar ham, odamlar ham birdan halok bo'ldilar. Quruqlikda yashovchi dimog'ida hayot nafasi bor bo'lgan har bir jonzot o'lib ketdi. Yerda bor bo'lgan butun mavjudot qirildi. Odamdan tortib chorvagacha, yerda qimirlovchi maxluqdan tortib ko'kda uchuvchi qushgacha bari yer yuzidan qirildi. Faqt Nuh va u bilan birga kemada bo'lganlar tirik qoldilar. Yer yuzidagi suv toshqini bir yuz ellik kun davom etdi [2,4,8].

Demak, "Tavrot" qadimgi turkiylarning ham e'tiqodi, tasavvurlari hamda tarixini o'rganishda muqaddas yodgorliklardan sanaladi [2,9]. Shu bilan birga qadimgi turkiy xalqlar ijodida ham to'fon mavzusiga oid rivoyatlar yaratilgan. To'fondan avval yer yuzining hukmdori Dengiz xon bor edi. U zamonda Nama ismli mashhur bir odam bor edi. Tangri Ulgen bu odamga dunyo to'foni bo'lajagini, inson bolalarini va hayvonlarni qutqarish uchun sinalgan sandal daraxtidan kema yasashni buyurdi. Namaning Suzunul, Sarul va Bاليqcha ismli uchta o'g'li bor edi. Nama bu o'g'illariga, tog' tepasida kema yasanglar, deb buyurdi. Kema Ulgen o'rnatganiday va ko'rsatganiday yasaldi. Nama Ulgenning buyrug'i bilan insonlarni va hayvonlarni kemaga oldi [2,9,10]. Namaning ko'zlari yaxshi

ADABIYOTSHUNOSLIK

ko'rmas edi. Kemadagilardan so'radi: "Biror narsa ko'ryapsizlarmi?" Ular "Yer yuzini tuman qopladi, mudhish qorong'ulik bosdi", - deb javob berdilar. Shu payt yerning ostidan, daryolardan, dengizlardan quruqlikka suvlar pishqirib chiqa boshladi. Osmondan yomg'ir yog'a boshladi. Kema suza boshladi. Osmon va suvdan boshqa biror narsa ko'rmasdi. Nihoyat, suvlar pasaya boshladi. Tog' cho'qqilari ko'rina boshladi. Kema Ko'mguday va Tulutti tog'laridagi quruqlikka o'tirdi. Suvning chuqurligini bilish uchun Nama quzg'unni jo'natdi. Quzg'un qaytib kelmadi. Qarg'ani jo'natdi, u ham qaytib kelmadi. Zag'izg'onni jo'natdi, u ham qaytib kelmadi. Nihoyat, kaptarni jo'natdi. Kaptar tumshug'ida bir shoxni olib orqaga qaytdi. Nama kaptardan "Quzg'un, qarg'a bilan zag'izg'onni ko'rdingmi?" - deb so'radi. Kaptar "Ularni ko'rdim, uchovi ham o'limtikka qo'nib, chuqilab yuribdi", - dedi. Nama "Ular qiyomatgacha o'limtiklar bilan kun kechirsin, sen mening sadoqatli xizmatkorim bo'lding, qiyomatgacha mening himoyam ostida yasha", - dedi. To'fondan keyin Nama Yaratuvchi va Yoyiq (To'fon)xon ismi bilan tangrilar qatorida yashadi. Keyingi nasllar unga qurbanlik keltirdilar [1,9,11].

"To'fon"ning "Tavrot" va turkiy xalqlar og'zaki ijodida yaratilgan variantlari syujeti hamda g'oyasida yaqinliklar bor. Dunyoda to'fon bo'lish, shu sababli inson farzandi va jonli narsalarni saqlab qolish har ikki rivoyatdagi bosh ezgu maqsaddir. Turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi to'fon tasviri bilan bog'langan obrazlar o'zining juda qadimiy qatlamlariga ega. Tangri Ulgen pok ruhlar xudosi bo'lib, uning obrazi qadimgi Oltoy turkiylari og'zaki ijodida Qurbo'ston nomi bilan tasvirlangan. Ikki rivoyatdagi xaloskor kuchlar: Nuh – Nama, ularning farzandlari: Som, Xom, Yofas - So'zunul, Sarul, Baliqchadir. Turkiylar afsonasida Nama yanada ilohiylashtiriladi, u buyuk xizmatlari uchun tangrilar qatoridan joy oladi. To'fonning og'zaki shakli juda qadimiy diniy tasavvurlar mahsulidir. Chunki undagi ko'p tangrilik tushunchalari, insonning tangri darajasiga ko'tarilishi shundan dalolat beradi [1,11,12]. Sak turklari davrida boshqa qavmlarning diniy urf-odatlari, marosimlarini o'zlashtirish qoralangan, hatto o'lim jazosi bilan cheklangan. Gerodotning "Tarix" kitobida saqlangan rivoyatda elga, uning urf-odatlariga hurmat va, aksincha, unga xiyonatning tarixiy namunasi tasvirlanadi.

Injil shunday deydi: "Nuh 500 yoshda edi va Nuhdan Som, Xom va Yofas tug'ildi [7]. "Nuh Xudovandning iltifotiga sazovor bo'lgan edi. Nuhning nasl-nasab tarixi shudir. Nuh solih kishi bo'lib Xudo bilan birga yurar edi. O'shanda yer zo'ravonlikka to'lib-toshgan, Xudoning ko'zi oldida buzilib borayotgan edi. Yerdagi har bir bashar o'z yo'lini buzib, yer razillashib borayotganini xudo ko'rdi-da, Nuhga xitob qilib dedi; Butun bashariyatning oxiri Mening ko'z o'ngimda turibdi, chunki ularning dastidan yer zo'ravonliklarga to'lib toshmoqda. Endi Men ularni yer bilan birga yo'q qilaman.

Sen esa o'zingga shamshod yog'ochidan kema yasagin. Kemanı xona-xona qilib ichkaridan va tashqaridan qatronlagin. Kemaning uzunligi uch yuz gaz, kengligi ellik gaz, balandligi esa o'ttiz gaz bo'lsin. Kemada bir tuynuk ochib, ustini bir gaz yuqoriroqda tom bilan yopib qo'ygin. Kemaning eshigini uning yon tomonida joylagin. Kemanı pastgi, o'rtá va yuqori qavatli qilib qurgin. Men yer yuzini to'fon bilan bostirib, falak ostida hayot ruhiga ega bo'lgan hamma maxluqlarni mahv etaman. Yerda yashovchi borliq mavjudot halok bo'ladi. Men faqat sen bilan ahd tuzib, shunday shart qo'yaman; Sen bilan o'g'illaring, kelinlaring, xotining kemaga kirib qutilasizlar. Shuningdek, sen bilan tirik qolishlari uchun hamma jonzotlardan kemaga kirgizgin: har bir maxluqning erkak va urg'ochi jinsidan ikkitadan olib kirgizgin. Halol bo'lgan har bir chorva tuyog'ining erkak va urg'ochi jinsidan yettitadan, harom bo'lgan chorva tuyog'ining erkak va ayolidan ikkitadan [2,4]. Parrandalarning ham erkak va urg'ochisidan yettitadan, yerda qimirlovchi jonivorlarning hammasidan ikkitadan sen bilan borsin va tirik qolsin. Bundan tashqari, yeyiladigan har xil oziq-ovqatdan ham yetarli g'amlab olgin. U sen va jonivorlaring uchun yemish bo'lsin", - dedi. Xudo nimaiki buyurgan bo'lsa, Nuh hammasini xuddi shunday bajo keltirdi. Chunki yer yuzida yetti kundan keyin Men yerga qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadigan yong'ir yog'diraman. O'zim bunyod etgan barcha mavjudotni yer yuzidan qirib tashlayman.

Ana shu kunning o'zida Nuh va uning og'illari: Som, Hom va Yofas, uning oila a'zolari, tirik jonzotlar kemaga kirib joylashdilar. Xudovand ularning orqasidan kemaning eshigini yopib qo'ydi. Qirq kun davomida yer yuzini to'fon bosdi, suvlar toshib kemani yerdan yuqoriga ko'tardi. Toshqin yanada kuchayib, yer yuzidagi baland tog'larni ham ko'mib qo'ydi. Osmon-u falakda faqatgina Nuhning kemasigina suzib yurar edi. Yer yuzidagi suv toshqini esa bir yuz ellik yil davom etdi. Kema ichidagi tirik insonlar va jonzotlar Xudoning xotirida bo'lib, U yer yuzi ustidan shamol estirdi. Shundan so'ng suvlar pasaya boshladi. Yettinchi oyning o'n yettinchi kunida kema Ararat tog'iga kelib to'xtab

qoldi [7]. Tag'in qirq kun o'tgandan keyin, Nuh qurban kemasining darchasini ochib, quzg'unni chiqarib yubordi. Quzg'un esa yer yuzida suv borligi uchun qo'nishga joy topolmay kemaga qaytib keldi. Yan yer yuzida suv bor yo'qligini bilish uchun kaptarni chiqarib yubordi. Ammo kaptar ham oyoq qo'yadigan qo'nalg'a topolmay kemaga qaytib keldi. Chunki yer yuzidan suv hali to'liq qaytmagan edi. Nuh qo'lini cho'zib kaptarni oldi. Yetti kun sabr qilib, Nuh tag'in kaptarni kemadan chiqarib yubordi. Oqshom qaytganida kaptarning tumshug'ida yangi yulangan zaytun bargi bor edi. Endi Nuh yer yuziga suv pasayib qolganiga ishonch hosil qilish uchun yana yetti kun sabr qildi va yana kaptarni chiqarib yubordi. Bu gal kaptar uning oldiga qaytib kelmadidi. Nuh umrining olti yuz birinchi yili yer yuzida suv qurib bo'lgan edi va Nuh kemani qopqog'ini ochib kema ichidagi barcha tirik jon yerga tushdilar.

So'ngra Nuh xudovand sha'niga qurbanlik qurdilar. Har bir halol chorvadan, har bir halol parrandadan olib, qurbongoh ustida so'yib qo'yidirdi. Xudovand qurbanlik tutunining hidini iskab, O'z ko'nglida dedi; "Men yerni odamzod tufayli boshqa la'natlamayman. Zeroki odamzod ko'nglidagi fikir xayol yoshligidanoq buzuqdir. Men avval qilganimdek, endi boshqa hamma jonivorlarni urib nobud qilmayman. Bundan keyin yer bor ekan, ekin-tekin, o'rim-yig'im, sovuq bilan issiq, yoz bilan qish, kun bilan tun tugamaydi" [7,9,13]. Nuhning kemadan chiqqan o'g'llari Som, Hom va Yofit edilar. Ham Kan'onning otasi bo'ldi. Nuhning bu uchala o'g'lidan odamzod tarqab, butun yer yuzi bo'ylab o'rashdi. Nuh yer haydab, dastlabki tokzorni o'tkazdi. U o'zi qilgan sharobdan ichib mast bo'lib, chodirida yalang'och yotgan edi. Kan'onning otasi Hom o'z otasining yalang'och yotganini ko'rdi-da, tashqariga chiqib, aka-ukasiga so'zlab berdi. Shunda Som va Yofit ikkovlon choponni yelkasiga tashlab olishdi-da, Yuzlarini boshqa tomonga burib, uning yalang'ochligi ko'rishmadi. Nuh mastlikdan keyin o'ziga kelgach, kenja o'g'lini unga nima qilganini anglab: "Kan'on la'nati bo'lsin! Og'a inilarini qullarini quli bo'lsin! – dedi. Va so'ngra ya'na dedi: Somning Tangrisi Xudovandga sanolar! Kan'on Somga qul bo'lsin! Xudo Yofitni fotih qilsin, Som chodirlarni unga bersin, Kan'on unga qul bo'lsin!" Nuh to'fondan keyin yana uch yuz ellik yil yashadi. Nuh jami bo'lib to'qqiz yuz ellik yosh umr ko'rib, o'ldi.

XULOSA

Alloh Nuh to'poni xabarlarini o'sha zamonda yashagan odamlar uchun ibrat, undan keyin yashaganlarga esa qimmatli saboq bo'lishi uchun yetkazdi. Payg'ambar va kitoblar vositasida Allah turli qavmlarga yo'rqnoma yo'lladi. Biroq Uning payg'ambarlari tomonidan odamlarga yetkazilgan matnlarning asli har safar o'zgartirilar edi. Odamlar to'fonning haqiqiy tafsilotiga madaniy, mistik va mifologik unsurlarni qo'shar edilar. Qur'on Allohdan ekanligi va uni abadiy o'z holicha saqlab qolishi tufayli u o'tmishning arxeologik topilmalariga to'g'ri keluvchi yagona manbadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid-abdurahmonovbeshinchি-qism.html>
2. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri (Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr). O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Yangi asr avlodи" nashryoti, 2005. – 376 b.
3. Drachuk Viktor. Yozuvchilar – o'tmish sirlari shohidi / So'z boshi: B. Ribakov. – T.: O'zbekiston, 1980. – 268 b.
4. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. I-kitob. – T.: "Yozuvchi" nashriyoti, 1990. – B. 240.
5. Kurbanniyazov M.A. XIV asr o'zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyoti. ("Qissasi Rabg'uziy" misolida). Fil.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. ... Qarshi – 2019. – B.144.
6. N.Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanmasi. T.: "Sano-standart" nashriyoti. 2017. – 556 bet.
7. Injil / Tovrotdan "Ibtido" / Zabur. Yunon va ibriy tillaridagi asl nusxasi asosidagi tarjima. Birinchi nashr: "Graficheski zavod Xrvatske", Zagreb, Xorvatiya. 1992.
8. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1965. – 398 b.
9. Tavrot. Toshkent, 2006. – 482 bet.
10. Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi: [Hind eposi]: Jangar qissasi / Ruschadan Yo'idoshev.C tarj. – 3-nashri. – T.: Yulduzcha, 1988. – 160 b.
11. Muqaddas Kitob. Toshkent- Moskva, O'zbekiston Bibliya jamiyati. 48. Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016. – B. 1933.
12. Фрэзер Дж. Дж. Фольклор в Ветхом завете: Пер. с англ. – 2-е изд., испр. – М.: Политиздат, 1989. – 542 c.
13. Horun Yahyo. Perished Nations,Ta-Na Publishers, Buyuk Britaniya, 2001; Global Publishing Istanbul.